



xam xuddi shu fikrlarimizga misol bo`la oladi.”..... *every little difficulty was solved instantly when it reached Burns: her memory seemed to have retained the substance of the whole lesson, and she was ready with answers on every point. I kept expecting that Miss Scatcherd would praise her attention; but, instead of that, she suddenly cried out - ‘You dirty, disagreeable girl! You have never cleaned your nails this morning!’ Burns made no answer: I wondered at her silence. ‘Why,’ thought I, ‘does she not explain that she could neither clean her nails nor wash her face, as the water was frozen?’* (“...xar bir kichik muammo Bernsga kelganda zudlik bilan hal etildi: uning xotirasi huddi butun sinfni xotirasidek qabul qilingandek tuyuldi va u xar bir savolga tayyor edi. Men Skecherd xonim uni maqtashini kutib turardim, ammo buning evaziga u birdan baqirib yubordi “Sen, iflos yoqimsiz qiz! Sen bugun ertalab tirnoqlaringni hech ham tozalamagansan!” Berns javob bermadi. Men uning jimligidan xayratda edim. “nima uchun’ deb o`ylardim “naxotki u suvning o`ta sovuqligidan nafaqat tirnoqlarini balki yuzini ham yuva olmaganini tushuntirib bermasa?”) yuqoridagi ushbu parchada Xelen Berns va Jeyn Eyrning qizlar maktabidagi ilk uchrashuvi tasviri berilgan. Kitobxon shu kichik xajmli tasviriy ifoda orqali Xelen obrazini ya`ni qay darajada ko`nikuvchan, bo`ysunuvchan, itoatkor bir qiz qiyofasini ko`z o`ngida gavdalantirishi, ayni vaqtda esa, asar bosh qaxramoni Jeynning ichki g`alayonini ham xis etish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlash lozimki, Sharlotte Bronte asardagi tasviriylik, emotsionallik va obrazlilikni badiiy til orqali maxorat bilan ochib berishga xarakat qilgan va fiministik adabiyot vakili sifatida bunga erishgan ham deb ayta olamiz. Asarning xozirgi kunga qadar kitobxonlar tomonidan sevib qilishi buning asl sabablaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. D.Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. Fan nashriyoti. 2007.
2. Ulug`ov A. Adabiyotshunoslikka kirish. “Universitet”. 2005
3. Charlotte Bronte “Jane Eyre” adapted by Margery Green Macmillan Publishers Limited. 2009.
4. Sharlotte Bronte. “Djeyn Eyr” perevod s angliyskogo V. Stanevich. Moskva.1990.
5. Charlotte Bronte “Jane Eyre” Free eBooks at Planet eBook.com.
6. J.Koller .Adabiyot nazariyasi va qisqacha adabiyotshunoslikka kirish. Buyuk Britaniya. 2011.

JOZEF ARCHIBAL KRONIN ASARLARIDA AVTOBIOGRAFIK ELEMENTLARNING KO`PLAB QO`LLANISHI

Mirsadullayev Miravaz Mirmuslim o`gli
Namangan Davlat Universiteti
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o`qituvchisi

***Annotatsiya:** Maqola shotlandiyalik realist yozuvchi, Jozef Archibald Kroninning asarlariga bag`ishlanadi. Ko`p sonli yozuvchilarda uchrab turuvchi xususiyat, avtobiografik elementlardan foydalanish holati tadqiq etiladi.*

***Kalit so`zlar:** realist, avtobiografik element, hayotiy roman, yozuvchilik kasbi*

USING MANY AUTOBIOGRAPHIC ELEMENTS IN THE WORKS OF JOSEPH ARCHIBAL KRONIN

Mirsadullayev Miravaz Mirmuslim o`gli



Namangan State University
department of English language and literature
teacher

Annotation: *This article is dedicated to the works of Scottish realist writer, Joseph Archibal Cronin. A feature that is common to many writers, using autobiographic elements, is analyzed.*

Key words: *realist, autobiographic element, real-life novel. writer profession*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МНОГИХ АВТОБИОГРАФИЧЕСКИХ ЭЛЕМЕНТОВ В РАБОТАХ ИОЗИФА АРЧИБАЛА КРОНИНА

Мирсадуллаев Мираваз Мирмуслим угли
Наманганский государственный университет
кафедра Английского языка и литературы
преподаватель

Аннотация: *Эта статья посвящена творчеству шотландского писателя-реалиста Джозефа Арчибала Кронина. Анализируется общая для многих писателей черта автобиографических элементов*

Ключевые слова: *реалист, автобиографический элемент, реальный роман. писательская профессия*

“...bilmagan narsangni yozishdan ko’ra bilgan narsalaring haqida yozish osonroq” [1, b. 6] Ushbu jumla avtobiografik romanlar yozishga bo’lgan ishtiyoqni yoki sababni tushuntirib beradi. Ch.Dikkens, S.Moyem va D.Lovrens kabi yozuvchilar bor va ular xotiralarini shunday saqlaganlarki xuddi fotografning surati kabidir. Bu yozuvchilar ancha avvalgi insonlar, joylar va voqealarni ishonchli aks ettirganlar va biror-bir tafsilot xiralashtirib yoki buzib talqin etilmagan.

Avtobiografik roman yozishga undaydigan ikkinchi istak bu ba’zi yozuvchilarning o’zlarining avvalgi hayotlarining xotiralarini ifodalashga bo’lgan kuchli istak-xohishdir. Ular bu ishni to’g’ridan-to’g’ri avtobiografiyada yoki avtobiografik romanlarda aks ettirishlari mumkin. Misol uchun, S.Moyem o’zining avtobiografik asari, “Inson qullig” da uni nima bunday asar yozishga undaganini tasvirlaydi:

...O’tgan hayotim haqidagi xotiralar bilan yana ovora bo’la boshladim. Ular menga shunday bosim bilan bostirib kelardi: uyqumda, yurgan yulimda, tayyorgarlik jarayonida, ziyofat kechalarida, ular menga shunday og’ir yuk bo’lardiki, butun ongimni zabt etgandi. Ulardan qutulishning yagoni yo’li bu barchasini qog’ozga tushurish kerak edi.

Shunday qilib, uning uzun avtobiografik romani, “Inson qulligi” paydo bo’ldi. Ch.Dikkensning “Devid Kopperfild” asari ham xuddi mana shunday yaratilgandi. Uning yozishmalarida yetarlicha dalillar bo’lib, ular roman yozish u uchun og’riqli tajriba bo’lganligini ko’rsatardi. Shuningdek, asarni yaratish jarayonida u juda berilib ketganligini, butun ongida xotiralar va qandaydir qichqiriqlar bo’lganligini eslaydi:

Devid Koperfild ni yoza turib, Dikkens o’zining o’tmishida qayta qizg’in hayot kechirdi, bolaligining achchiq xissini qaytarib oldi. Bu hayajonli tajriba edi. Ajablanarli joyi yo’q, o’zining o’rta yoshida o’tmishga nazar solish (Dikkens bu asarini 37 yoshida boshlagan va bir yarim yilda yakunlagan), o’limidan avval tan olib aytgan:



Barcha kitoblarimdan aynan mana shunisini ko'proq yaxshi ko'raman. Hayolimdagi xar bir bolaga mehribon otaman va xech kim oilani men kabi qadrlab sevmaydi. Ammo, ko'plab ota-onalar kabi, yuragimning tub-tubida sevimli farzandim bor. Va bu Devid Koperfilddir.

Avtobiografik romanlar haqidagi yana bir qiziqarli fakt bu ularning ko'pchiligi bolalik va yoshlik yillariga bag'ishlanadi. Ehtimol Ingliz adabiyotidagi uchta eng asosiy avtobiografik romanlarga Devid Koperfild, Inson qulligi va O'g'illar va sevishganlar asarlarini kiritish mumkin. Bularning barchasini bolalik va yoshlikning yorqin xotiralari ilhomlantirgan. Dikensning shoh asari, balki, qahramonining keyingi hayot jarayonini hikoya qilsa ham, ko'pchilikning tan olishicha, kitobning eng yaxshi qismi bu uning dastlabki qismlaridir. *"Kitobning dastlabki o'n to'rtta bo'bi biz egalik qiladigan bolalik va yoshlik yillarining eng yaxshi tasvirini o'z ichiga oladi."* [2, b. 176] Inson qulligi Filip Kareyning Selli bilan unashtiruvi sahnasi bilan yakunlanadi, va O'g'illar va Sevishganlar esa Pol Morel hayotining dastlabki yigirma olti yilini o'z ichiga oladi. Avtobiografik roman bo'yicha yana bir muhim fakt bu uning shunchaki tarjimai hol emas, balki badiiy asarligidir. Muallif o'zining hayotiy materiallaridan foydalanishi mumkin, ammo ba'zi bir o'zgartirishlar kiritadi va yangi narsa yaratadi. *Devid Koperfildda, biz "fakt va hayolning aralashuvini"* [3, b.686] ko'rishimiz mumkin. D.Lovrensning do'sti, Jessi Chambers *"O'g'illar va sevishganlar"* dagi ba'zi epizodlarga haqiqatga to'g'ri kelmasligini aytib, e'tiroz bildirgan va faktlarga muvofiq bo'lishi uchun ba'zi o'zgartirishlar kiritish lozimligini ta'kidlab o'tgan. Bunga javoban, yozuvchi roman yozayotganligini va bu tarjimai hol emasligini unga eslatib o'tgan.

Avtobiografik roman yozish mobaynida muallif o'zgartirishlar kiritishini, original asar yaratishini aytib o'tdik. Ammo u o'zining hissiyotidan tashqariga chiqa olmaydi. S.Moyem bu holatni quyidagicha izohlaydi:

"Inson qulligi" shunchaki tarjimai hol emas, aksincha avtobiografik roman; fakt va hayolot aralashtirib yuborilgan; hissiyotlar esa menga tegishli, ammo barcha voqea-hodisalar sodir bo'lganidek bir-biriga bog'liq emas; ularning ba'zilar mening hayotimdan olinmagan, balki bosh qahramonimga topshirilgan; ammo o'sha insonlar bilan mening yaqinligim bor.

Devid Koperfild haqida Edgar Johnson quyidagilarni keltiradi:

"Ko'pincha to'qima obrazlar, voqealar Dikensning o'sha baxtsiz bolaligidagi voqealarga mos kelardi...Ularning o'ylab topilgan har bir elementlari faktlardan ko'ra to'g'riroq edi, chunki ular hissiy haqiqatni ko'rsatib turardi."

Yuqoridagi jumlar *"O'g'illar va sevishganlar"* asariga ham tegishlidir.

Kroninning asosiy avtobiografik romanlariga *"Qasr"*, *"Yoshlik yillari"*, *"Shennon yo'li"* va *"Olti chaqalik qo'shiq"* larni kiritish mumkin. Ularni Ingliz tilida yozilgan eng yaxshi avtobiografik romanlar qatoriga qo'shish mumkin. Bu romanlar mualliflari yoshlik yillarida qayta yashashga kuchli istakni xis qilganini ko'rsatadi. Yana bir haqiqat shuki, bu asarlar tarjimai hol sifatida qabul qilinmasligi kerakki; uning hayotidan to'g'ridan-to'g'ri olinganligiga qaramay, uning shaxsiy hayolidan olingan ma'lumotlarni ham to'qib chiqargan. Shunga qaramay, bu asarlar hissiyot tarafidan hayotga sodiqdir. Yana shuni ham aytib o'tish kerak: bu romanlarning barchasi yozuvchi hayotining dastlabki yillarini o'z ichiga oladi.

Kroninning tarjimai holini, Ikki olam sarguzashtlari, o'qib va romanlari bilan yuzma-yuz ko'rishib, shu narsa aniq bo'ladiki, romanlarida ko'p parchalardan keng foydalanishda ikkilanmaganini bilish mumkin; hatto o'zining tarjimai holidan so'zma-so'z keltirilgan holatlar ham mavjud.



Avtobiografik romanlarning ajralmas afzalliklari va kamchiliklari bor. Xotiradan olib yozilganlarni o'qish hayoliy to'qimalarni o'qigandan ko'ra haqiqatga yaqinroq tuyuladi. Kroninning "Qasr", "Yoshlik yillari", "Shennon yo'li" va "Olti chaqalik qo'shiq" asarlarini o'qiganda, badiiy to'qima asardan ko'ra, tarjimai hol yoki avtobiografik ishni o'qigandek bo'linadi. Boshqa tomondan esa, muallif romanlarining mazmuni sifatida o'z tajribasidan o'tgan ishlarni ishlatishi orqali romanda mutanosiblik, dolzarblik masalalarini yo'qotishi mumkin. Va yana hayotiy haqiqatni san'at ishiga aylantirishdagi muvaffaqiyatsizlikka ham uchrashi mumkin. Misol uchun, D.Lovrensning "O'g'illar va sevishganlar" romanida avtobiografiyani badiiy to'qimaga aylantirish afzalliklari va kamchiliklari ko'rinib qolgan. Ammo kroninning san'atkorona mahorati va materiallarni to'g'ri boshqarishi uni haddan ortiq puxtalikka intilish va nomutanosiblikdan saqlab qolgan. Uning avtobiografik romanlari tarjimai hol va badiiy asar afzalliklarini o'z ichiga olgan.

Kroninning onasi Montgomeri bo'lgan. Montgomerilar eng qadimgi va protestant Shotland oilasining bir bo'g'ini bo'lishgan. Onasi o'n to'qqiz yoshida Irland katolik e'tiqodidagi kishi bilan sevishib qolgan. Yigiti bilan oilasidan qochib ketadi, turmush quradi va o'z xohishi bilan uning e'tiqodiga o'tadi. Ularning yolg'iz farzandi (bo'lg'usi romanist) Katolik cherkovida cho'qintiriladi. Oiladagi baxtli hayot bor-yo'gi yeti yil davom etadi. Uning sevimli otasi, kelishgan, ochiq-qo'l kishi,, to'satdan o'pka kasalligidan vafot etadi. Onasi ikki mobaynida qiyinchiliklarga uchraydi va nihoyat ota uyiga qaytadi. Kronin romanlaridagi ko'plab xarakterlar, muallif kabi, mazhablararo turmushdan tug'ilgan va otasini erta yo'qotgan kishilardir. "Yoshlik yillari" dagi Robert Shennon katolik mazhabidagi kishi. Onasi Shotland protestanti va atrofida gilarining qarshiligiga qaramay, Dublinlik, katolik mazhabidagi Oven Shennonga turmushga chiqadi. Oven Shennon choy import qiluvchi firmada oddiy ishchi va xech narsasi yo'q, faqat yaxshi ko'rinish va yuqori didga ega insondir. Ular birgalikda baxtli hayot kechiradilar ammo baxtsiz xodisa tufayli, Oven Shennon o'pka silidan vafot etadi, bu turmush uzoqqa bormaydi. Ayol ham tez orada vafot etadi. Yolg'iz farzand, Robert Shennon onasining uyida katta bo'ladi.

"Qirollik kalitlari" dagi Frensis Chisholmning otasi Katolik va onasi esa Protestant mazhabiga e'tiqod qilishadi. Ammo ular mukammal tinch hayot kechirishgan. Baxtga qarshi uning ota-onasi cho'kib ketishadi va u ona tomonidan bobo-buvisinikida ulg'ayadi.

"Bu yerdan tashqarida" romani qahramoni Dan o'zining to'liq ismini, Luter Aloysius Dan, jinoyat sifatida yashiradi. Bu holatda, kalvinistik ona va katolik ota qattiq va davomiy kurash olib boradilar. Bolaning hayoti baxtsiz edi, sababi uni ham cherkovda va ham ibodat joyida cho'qintirishgan edi. Baxtsiz xodisa tufayli vafot etgan turmush o'rtog'idan so'ng, ona butun hayotini o'zgartirib yuboradi va o'g'lini Iuzetlar kollejiga yuboradi.

"Uch sevgi" asarida Lusi, Shotland katoligi, Frenk Morga turmushga chiqadi. Turmush o'rtog'i uning e'tiqodini beparvolik bilan e'tirof etsada, uning qarindoshlari erining Irland ekanligini sababli uni xushlamay qabul qilishadi.

Kronin va uning onasi ota uyiga qaytishganida qishloqda shov-shuv ko'tariladi. Yaxshi qabul qilinmagan katolik bolakay Protestantlar maktabiga yuboriladiki, bu yerda shunchaki uning e'tiqodi sababli "sinfdozlar va hatto o'qituvchilari tomonidan *gunohlarning kechirilishi va papaning benuqsonligi* kabi turli masalalarda ayovsiz tanqid qilinardi". [4, b. 236] Irqiy va diniy nafrat sababli bo'lajak yozuvchining hayoti butunlay ayanchli edi. Vaqtlar o'tgani sari Kronin o'ziga nisbatan beshavqat munosabatda bo'lganlar bilan kurasha boradi va turli o'yinlardagi



ko'rsatgan mahorati tufayli mashhurlikka erishadi. Bir qancha yutuqlarga erishadiki, bularning barchasi uni universitetda o'qishiga va tibbiyot darajasini olishiga yo'l ochadi.

Katolik mazhabidaligi va Irland otadan tug'ilgani kabi sabablar yosh Kronin uchun Shotlandiyadagi Protestantlar jamiyatida yashash jarayonida ko'plab qiyinchiliklarga olib keladi va bularning barchasi yozuvchi qahramonlarining hayotida ham aks etadi. Shennon Muqaddas farishtalar cherkoviga qatnashga, gunohlaridan poklanishga, ruhoniyning qo'lini o'pishga va h. kuchli da'vat etiladi. Uning o'qituvchisi, janob Danglish uni qiyniqqa soluvchilaridan biridir. Hatto uyda ham hayot u uchun achinarli ahvolda. Yoshligidanoq ishlab pul topishga majbur. Shunga qaramay, qobiliyatli yigitligi sababli, qattiq o'qiydi va stipendiya va boshqa turli mukofotlar orqali tibbiyot talabasiga aylanadi.

Yetim qolgan payt, Harvey Leit "ezma va zaif xolasining" [5, b. 28] qararmog'iga tushib qoladi. Ammo shunda ham, tirishqoqligi sababli ko'plab sovrinlarni o'ziniki qilib oladi.

"Uch sevgi" asarining qahramoni Lusi ham, bevaligi va qashshoqligi sababli yolg'iz o'gli Piterni voyaga yetkazish va shifokor bo'lishiga erishishda ko'plab qiyinchiliklarga duch keladi.

"Qirollik kalitlari" dagi Frensiz Chisholm ota-onasining vafotidan so'ng, ona tomonidan bo'lmish bobo-buvisining, Glennilar uyidan qo'nim topadi. Glenni xonim nabirasini maktabdan juda erta qaytarib oladi va Derrov kemasozlik zavodiga ishlash uchun yuboradi.

"Yahudiy daraxti" qahramoni Devid Morey bolaligida ota-onasidan ayriladi, va bir muddat qarindoshlarining moddiy yordamida kun kechiradi. Tug'ma istedodi orqali Uinton universitetiga o'qishga kirishga, tibbiyot talabasi va keyinchalik shifokor bo'lib yetishishga muvaffaq bo'ladi.

Huddi Jozef Kronin kabi, "Olti pens qo'shig'i" bosh qahramoni Lourens ham otasining vafotidan so'ng ko'p qiyinchiliklarni boshidan o'tkazadi. Ko'plab urinishlardan so'ngina, va nihoyat, stipendiya olishga va shifokor bo'lib ish boshlashga muvaffaq bo'ladi.

Glazgo universitetining tibbiyot fakultetidagi talabalik davrida Kronin o'zidan quyi kursda taxsil oluvchi, non-konformist bo'lmish Merini sevib qoladi. O'zaro munosabatlarini yakunlashga bo'lgan barcha urinishlarga qaramay bir-birlaridan voz kecha olmaydilar. Yaqinlaridan va barcha aloqalaridan voz kechib, Meri Kroninga turmushga chiqadi. Shunday qilib, Kronin Protestant mazxabidagi ayolga uylangan otasining izidan boradi.

Hayotining bunday faktlarini Kronin o'zining "Shannon yo'li" romaniga olib kirgan. Shennon, Irland katolik ota va Shotland protestant onaning farzandi hisoblanadi. U ham o'zi taxsil olayotgan kollejning dastlabki bosqichida o'qiyotgan talaba qiz, Jin Loni yoqtirib qoladi. Qiz Bleirhildagi Breten oqimiga a'zosi va G'arbiy Afrikadagi Kumasiga missioner sifatida borishni maqsad qilgan. Kroninning rafiqasi Meri singari, Jin Lo ham barcha qarindoshlarini tashlab ketadi va sevgilisi bilan turmush quradi.

Hatto talabalik davrida ham Kronin "betashvish va o'taketgan shuhratparast" bo'lgan. U doimo har bir tomir urishini quloqlarida eshitganday, "ega bo'l, erish, ega chiq... boylikka, yuqori martabaga va shon-shuhratga" so'zlarini eshitardi. Tannokbirda, shifokor Kameron yordamchisi bo'lib ishlayotganda u juda tez "erishayotgandi."

Kronin kabi, Jo Govlan – "Yulduzlar pastga qaraydi" asari qahramoni – yuqori lavozimga erishganida ochiqchasiga tan olib aytadi: "Men faqat erishmoqchiman." [6, b. 3] Londonga kelgandan so'ng, Menson, bu payt muvaffaqiyatsizlikka uchragan, "faqatgina ega chiqishni xohlaydi. Va buni u har qanday holatda ham amalga oshirishni istaydi". "Bu yerdan uzoqda" asaridagi janob Metyu Sprot ham ayni shiorni qo'llaydi. U yetim qolganidan so'ngxolasi tomonidan tarbiyalanadi. "Men ega chiqaman, erishaman, qo'lga kiritaman" shiori uning



yuragiga naqsh kabi o'yib yozilgandi. Bu so'zlar uning miyasida tinmay xarakterda edi. Ichki bir ovoz unga pichirlab "qo'lga kirit, ega chiq.... Bunga, kamida bu sening imkoniyating" der ediki, bu narsa uni Reks Matrini ayblab chiqishda o'zining butun e'tiborini qaratadi. "Yahudiy daraxti" da professor Drummond Moreyga shaxsan ta'kidlab aytadi: "O'g'lim, sen bunga erishasan."

Glazgo universitetidagi so'ngi talabalik yilida Lokli Asilumda klinik kotib vazifasida ishlaydi. U joyni o'zining avtobiografik asarida, "Ikki olam sarguzashtlari" quyidagicha tasvirlaydi: "Shaharning g'arbiy qismidan to'rt mil uzoqlikda, ajoyib o'rmon bilan o'ralgan qishloqda joylashgan, qo'rqinchli darajada haybatli- ajoyib bunyod etilgan saroy, yaxshi-parvarishlangan bog' atrofini o'tloqlar va gulzorlar o'ragan, butun mulk tosh devor bilan chegaralangan."

Kroninning bir nechta qahramonlari ham mana shunday boshpanaga "joylashtiriladi." "Uch sevgi" asarida Noking xonim qamab qo'yilgan Blendford boshpanasi xuddi "bir nechta binolar joylashgan xiyobon" ga qiyoslanadi. "Salibchining qabri" dagi Julia Desmond esa Dalvich boshpanasiga jo'natiladi. Kronin Lokli boshpanasidagi bemor, Jorj Bleir bilan tennis o'ynashga odatlanadi. Blendfordda ham "uchta tennis korti va mevalari g'arq pishgan bo'gi bor edi." Shuningdek, Kronin Kastleondagi shifoxonani ("Olti pens qo'shig'i" romani) tasvirlayotganida o'zi ishlagan Loklini hayolidan o'tkazgan: "...baland daraxtlar, olm ava olxo'ri daraxtlari, ajoyib ferma va kashtan daraxtlari bilan o'ralgan xiyobonning ko'tarilgan qismi. U qirdagi qasr ko'rinishidagi saroy edi."

Lokli shifoxonasida bir kuni Kronin bemorlardan biri tomonidan o'ldirib qo'yilishiga bir bahya qoladi, baxtiga yordamchilar tomonidan qutqarib qolinadi. Ammo bosh qismiga 10 ta chok tushadi. Bunday noxush vaziyat "Uch sevgi" qahramonlari bilan ham sodir bo'ladi. Hoking xonim Lusini bo'g'ishga harakat qiladi. Bu voqeadan so'ng Lusi bir hafta to'shakda yotishiga to'g'ri keladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, J.Kronin avtobiografik elementlardan foydalanish bo'yicha ulkan maktab yaratib ketgan va "muallifning tarjimai holi ko'pincha u uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan". [7, b. 14]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Somerset Maugham, Muqaddima "Inson qulligi", b. vi,
2. Hesketh Pearson. *Dickens, His character, Comedy and career*, b. 176, 1949
3. Edgar Johnson, Charles Dickens: His tragedy and Triumph
4. Ikki olam sarguzashtlari
5. Grand kanary
6. Yulduzlar pastga qaraydi
7. M.Mirsadullayev- *Jozef Kronin asarlarida uning tarjimai holi asosiy manba bo'lib xizmat qilishi.*- Maqola, O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar, 2020, Toshkent